

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARDA "ADOLAT" KONSEPTINING LEKSIK VA SEMANTIK IFODALANISHI

Nasridinova Sitora Utkirovna

Osiyo Xalqaro Universiteti Xorijiy til va ijtimoiy fanlar kafedrası assistenti.

Akhmedova Durdona Qahramon qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti 1-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18003067>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida "adolat" konseptining leksik va semantik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tadqiq etiladi. Tadqiqotda konsept tushunchasining nazariy asoslari, ingliz tilidagi justice va o'zbek tilidagi adolat birliklarining lug'aviy, semantik hamda madaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, klassik adabiyot namunalari, zamonaviy ilmiy qarashlar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va rasmiy hujjatlarida adolat g'oyasining talqini yoritiladi. Tadqiqot natijalari til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: adolat, konsept, leksik-semantik tahlil, qiyosiy tilshunoslik, mentalitet, tenglik, haqqoniylik, to'g'rilik, islomiy tafakkur, ijtimoiy barqarorlik, sinonim, qonuniylik, strategiya.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda konseptlar tahlili muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Konsept til orqali inson tafakkuri, milliy mentalitet va madaniy qadriyatlarining ifodalanishini aks ettiradi. Ayniqsa, jamiyat hayotida muhim ijtimoiy va axloqiy ahamiyatga ega bo'lgan "adolat" konsepti turli fanlar, jumladan, tilshunoslik, falsafa va huquqshunoslik doirasida keng o'rganilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida adolat tamoyili davlat siyosatining asosiy ustunlaridan biri sifatida e'tirof etilib, jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida qoraladi. Bu g'oya Prezident Sh.M. Mirziyoyev asarlarida ham adolatli jamiyat barpo etish davlat taraqqiyotining muhim maqsadi ekanligi ta'kidlanadi.¹ "Adolat" konsepti jamiyatning huquqiy, axloqiy va ijtimoiy rivojida muhim mezon bo'lib, u har bir xalq tilida o'ziga xos leksik birliklar orqali ifodalanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi — ingliz va o'zbek tillarida adolat konseptining leksik va semantik ifodalanishini qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism. O'zbek tilidagi "adolat" so'zi arab tilidan o'zlashgan bo'lib, 'adl — "tenglik", "haqqoniylik", "to'g'rilik" ma'nolarini anglatadi. Bu so'z Sharq falsafasi va islomiy tafakkurda markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi.

O'zbek tilida "adolat" konsepti quyidagi so'z va birikmalar *haqqoniylik*, *insofililik*, *to'g'rilik*, *halollik*, *tenglik*, *haqiqat*² orqali ifodalanadi. Bu sinonimlar adolatning turli semantik qirralarini ochib beradi.

Frazeologizmlar va maqollarda adolat tushunchasining ishlatilishiga keladigan bo'lsak, o'zbek xalq og'zaki ijodida adolat g'oyasi chuqur ildiz otgan:

- Adolat — davlatning ustuni
- Adolat bor joyda baraka bor

¹ Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi".-Toshkent, 2021.

² Rahmatullayev Sh. "O'zbek tilining etimologik lug'ati".-Toshkent, 2006.

– Podsho adolat bilan podshodir

Bu maqollarda adolat nafaqat axloqiy, balki siyosiy va ijtimoiy barqarorlik omili sifatida talqin qilinadi. O‘zbek mumtoz adabiyotida xususan, Alisher Navoiy asarlarida adolat konsepti jamiyat barqarorligi va davlat mustahkamligining asosiy mezoni sifatida talqin qilinadi. Navoiy asarlarining mazmuniy tahlili shuni ko‘rsatadiki, adolat hukmdorning eng muhim fazilati sifatida e’tirof etiladi.³ Alisher Navoiy ijodida adolat insoniy komillikning asosiy mezoni sifatida talqin etiladi. “Mahbub ul-qulub” asarida Navoiy adolatni jamiyatni poklovchi kuch deb ataydi.⁴

Qiziqarli jihati shundaki, Navoiy adolatni faqat hukmdorlarga emas, balki har bir shaxsga daxldor tushuncha sifatida ko‘rsatadi. XI asrda yozilgan “Qutadg‘u bilig” asari adolat konseptining badiiy-falsafiy talqiniga yorqin misoldir. Asarda Kuntug‘di obrazi adolat ramzi sifatida tasvirlanadi. Muallifga ko‘ra, davlatning mustahkamligi hukmdorning adolatiga bog‘liq.⁵

Ingliz tilidagi “justice” so‘zi lotincha *justitia* (“to‘g‘rilik”, “qonuniylik”) so‘zidan kelib chiqqan. Bu so‘z ingliz madaniyatida asosan huquqiy va institutsional ma’noda ishlatiladi. Ingliz tilida “justice” konsepti *fairness, equity, righteousness, lawfulness, impartiality*⁶ so‘zlari bilan boyitiladi. Bu birliklar adolatning betaraflik va qonun ustuvorligi bilan bog‘liq jihatlarni ifodalaydi. Ingliz tilida “adolat” tushunchasi asosan *justice* leksik birligi orqali ifodalanadi.

Ingliz tilining izohli lug‘atlarida *justice* qonuniylik, tenglik, xolislik va huquqiy tartibot bilan bog‘liq tushuncha sifatida izohlanadi. Ingliz tilidagi *justice* ko‘pincha huquqiy institutlar bilan uzviy bog‘liq holda qo‘llanilib, *criminal justice, social justice, justice system* kabi birikmalar orqali jamiyatdagi huquqiy tartib va tenglik g‘oyalarini ifodalaydi. Shuningdek, *bring to justice* iborasi adolatni tiklash, jinoyat uchun javobgarlikni anglatadi. Bu holat ingliz tilida adolat konseptining ko‘proq huquqiy va institutsional xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Ingliz adabiyotida adolat konseptiga nazar soladigan bo‘lsak, Uilyam Shekspirning “The Merchant of Venice” asarida adolat va rahm-shafqat o‘rtasidagi qarama-qarshilik yoritiladi. Bu asarda adolat qat’iy qonun sifatida emas, balki insonparvarlik bilan uyg‘un bo‘lishi kerakligi g‘oyasi ilgari suriladi.⁷ Charlz Dikens romanlarida (masalan, “*Oliver Twist*”) adolat ijtimoiy tengsizlik va kambag‘allik muammolari fonida tasvirlanadi. Bu yerda *justice* tushunchasi axloqiy norozilik bilan bog‘lanadi.⁸

Zamonaviy O‘zbekiston taraqqiyotida adolat masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Prezident Sh.M. Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida qonun ustuvorligi va adolatli jamiyat barpo etish bosh maqsad sifatida belgilangan.

Shuningdek, “Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi Prezident Farmonida sud-huquq tizimini isloh qilish orqali adolatni ta’minlash muhim vazifa sifatida qayd etilgan.⁹ Bu hujjatlar adolat konseptining nafaqat til va madaniyatda, balki real ijtimoiy hayotda ham muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

³ Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar.

⁴ Navoiy A. Mahbub ul-qulub.-Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot,1997

⁵ Yusuf Xos Hojib, Qutadg‘u bilig.-Toshkent:Fan,1971.

⁶ Oxford Advanced Learner’s Dictionary.

⁷ Shakespeare W. The Merchant of Venice.-London,1600.

⁸ Dickens Ch. Oliver Twist.-London,1838.

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida’gi Farmoni

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi *justice* va o'zbek tilidagi *adolat* umumiy semantik asosga ega bo'lsa-da, ularning mazmuniy qamrovi turlicha. Ingliz tilida adolat ko'proq huquqiy tizim va qonunlar bilan bog'liq bo'lsa, o'zbek tilida u axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy qadriyatlar bilan boyitilgan.

Bu farqlar har ikki xalqning tarixiy rivoji, madaniy an'analari va ijtimoiy tuzilmasi bilan izohlanadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, adolat konsepti ingliz va o'zbek tillarida umumiy mazmunga ega bo'lsa-da, uning leksik va semantik ifodalanishi milliy madaniyat va tafakkurga bog'liq holda farqlanadi. O'zbek tilida adolat ko'proq axloqiy va ma'naviy kategoriya sifatida talqin qilinsa, ingliz tilida u huquqiy tizim bilan uzviy bog'langan.

Mazkur maqola tilshunoslik, qiyosiy semantika va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalarida olib boriladigan tadqiqotlar uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. — Toshkent, 2021.
2. Rahmatullayev Sh. *O'zbek tilining etimologik lug'ati*. — Toshkent, 2006.
3. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar.
4. Navoiy A. *Mahbub ul-qulub*. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1997.
5. Yusuf Xos Hojib. *Qutadg'u bilig*. — Toshkent: Fan, 1971.
6. Oxford Advanced Learner's Dictionary.
7. Shakespeare W. *The Merchant of Venice*. — London, 1600.
8. Dickens Ch. *Oliver Twist*. — London, 1838.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.